

Asosiy ko'rsatkichlari.

2018 yilning 1 yanvar holatiga bankning jami aktivlari yil boshiga nisbatan 13 827,3 mlrd.so'mga yoki 2,3 barobardan ko'proqqa o'sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlarning 80% tashkil qildi.

Bank kapitalining hajmi 2017 yil 1 yanvarga nisbatan 3 barobarga o'sgan.

Bank daromadlarining hajmi ko'payib bormoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobarga oshgan holda, olingan sof foyda miqdori o'z navbatida 51.1 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

"Asaka" bank aktsiyadorlari ro'yxati

№	Наименование акционера	Количество акций	Номинальная стоимость пакета	Доля в УФ (%)
1	Фонд реконструкции и развития РУз.	10 453 358 750	1 453 121 399 837,50	69,23%
2	Министерство финансов РУз.	3 269 047 234	454 430 255 998,34	21,65%
3	АК "Узавтосаноат"	540 575 100	75 145 344 651,00	3,58%
4	АО "Алмалыкский ГМК"	254 627 307	35 395 741 946,07	1,69%
5	УП "Бухарский НПЗ"	228 005 694	31 695 071 522,94	1,51%
6	ГП "Навоийский ГМК"	97 892 577	13 608 047 128,77	0,65%
7	АО "Узбекистон темир йуллари"	95 635 395	13 294 276 258,95	0,63%
8	АК "Узбектелеком"	50 445 054	7 012 366 956,54	0,33%
9	УДП "Ферганский НПЗ"	40 178 574	5 585 223 571,74	0,27%
10	АО «Узметкомбинат»	40 178 574	5 585 223 571,74	0,27%
11	АО "Узагросугурта"	19 370 783	2 692 732 544,83	0,13%
12	СК ООО "Халк Сугурта"	4 698 000	653 068 980,00	0,03%
13	НКЭИС "Узбекинвест"	4 665 600	648 565 056,00	0,03%
ИТОГО:		15 098 678 642	2 098 867 318 024,42	100,00%

Uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha.

2018 yil boshidan «Asaka» bank tomonidan 1 223,5 mlrd.so'm miqdorida uzoq muddatli investitsion loyihalar moliyalashtirilgan, shu jumladan iqtisodiyot sektorlari:

Sanoat – 1 103,6 mlrd.so'm.

Qishloq ho'jaligi – 8,5 mlrd.so'm.

Qurilish – 2,2 mlrd.so'm.

Transport va aloqa – 23,5 mlrd.so'm.

Ijtimoiy soha – 15,3 mlrd.so'm.

Boshqa maqsadlar –70,5 mlrd.so'm.

Ushbu loyihalarni moliyalashtirish natijasida 107 ta yangi ishchi o'rinlar barpo etilgan.

«Asaka»bank tomonidan respublikaning barcha regionlarida aholini uy-joy qurilishi fondi bo'yicha podryad tashkilotlarga kredit ajratish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 671,2 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratilgan, jumladan viloyatlar kesimida:

Andijon viloyati – 41,2 mlrd.so'm;

Buxoro viloyati – 13,8 mlrd. so'm;

Kashkadaryo viloyati – 110,6 mlrd.so'm;

Ferg'ona viloyati – 51,1 mlrd.so'm;

Xorazm viloyati – 32,5 mlrd.so'm.

Qoraqalpog'iston Respublikasi- 179,4 mlrd.so'm.

Surxondaryo viloyati – 77,9 mlrd. so'm

Jizzax viloyati – 73,9 mlrd. so'm

Namangan viloyati – 13,2 mlrd. so'm

Navoiy viloyati– 0,6 mlrd. so'm

Sirdaryo viloyati – 31,5 mlrd. so'm

Toshkent sh - 45,3 mlrd. so'm

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun 1 876,9 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,5 foizni tashkil qildi.

Jumladan, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 121,4 mlrd.so'mni, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit mablag'lari 143,5 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qarorlariga asosan oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 376,0 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 364,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, joriy yilning 1 yanvar holatiga ta'lim muassasalari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyati uchun 12,9 mlrd. so`mdan ortiq kredit mablag`lari ajratildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2017 yil davomida "Asaka" bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar hisobiga 10 200 nafardan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bank depozitlari bo'yicha

2018 yil 1 yanvar holatiga "Asaka" bankning jami aholi omonatlari qoldig'i miqdori joriy yil boshiga nisbatan 129 foizga oshgan bo'lsa, shundan muddatli omonatlar qoldig'i yil boshiga nisbatan 147 foizga ortdi.

Bank bo'yicha jami 36 ta omonat turi mavjud bo'lib, shundan 23 tasi milliy valyutadagi va 13 tasi xorijiy valyutadagi omonatlar.

Jismoniy shaxslarning o'z omonatlari to'g'risida ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi "SMS-banking" xizmatidan foydalanuvchilari soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 131 mingtadan oshib ketdi.

Savdo va pullik xizmatlar orqali tushumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 188% ga oshgan bo'lsa, shundan terminallar orqali savdo aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 121% ga oshgan.

Kommunal xizmatlardan tushumlar plastik kartalar bilan birga o'tgan yilga nisbatan 109 foizga oshgan.

Plastik kartochkalar biznesini rivojlantirish bo'yicha.

Bank tomonidan 2018 yil 1 yanvar holatiga 1mln. 927 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38 ming donaga ko'paygan.

2018 yilning 1 yanvar holatiga bank tomonidan 11 209 ta terminal o'rnatilgan, shundan savdo terminallari 10 278 donani tashkil qiladi.